



MIGRATION PHENOMENON WITHIN THE SOCIAL PANORAMA OF NEW UZBEKISTAN: ANTHROPOLOGICAL PERSPECTIVES AND PHILOSOPHICAL DISCOURSE

Bakhodirjon Maxamadjonovich Abdullayev

Lecturer (PhD)

Department of Social and Humanitarian Sciences

Pedagogy and Psychology, ADCHTI

Andijan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: migration, social anthropology, existence, identification, translocality, philosophical categories, New Uzbekistan, cultural adaptation.

Received: 24.02.26

Accepted: 25.02.26

Published: 26.02.26

Abstract: The article examines the socio-anthropological essence of the migration phenomenon and its interconnection with philosophical categories. The author analyzes migration not merely as a spatial movement but as a qualitative transformation of human existence. The study provides a philosophical justification for the issues of a migrant's personal identity, the dialectics of "self" and "other" categories, and the evolution of spiritual values within the context of translocality.

YANGI O'ZBEKISTONNING IJTIMOYIY MANZARASIDA MIGRATSIYA FENOMENI: ANTROPOLOGIK YONDASHUV VA FALSAFIY TAHLIL

Baxodirjon Maxamadjonovich Abdullayev

O'qituvchi (PhD)

Ijtimoiy gumanitar fanlar, Pedagogika va psixologiya kafedrası

ADCHTI

Andijon, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: migratsiya, ijtimoiy antropologiya, ekzistentsiya, identifikatsiya, translokallik, falsafiy kategoriyalar, Yangi O'zbekiston, madaniy adaptatsiya.

Annotatsiya: Maqolada migratsiya jarayonining ijtimoiy-antropologik mohiyati va uning falsafiy kategoriyalar bilan bog'liqligi tadqiq etilgan. Muallif migratsiyani shunchaki makoniy ko'chish emas, balki inson ekzistentsiyasining transformatsiyasi sifatida tahlil qiladi. Tadqiqotda migrantning shaxsiy identifikatsiyasi, "begona" va "o'zlik"

kategoriyalarining dialektikasi hamda translokallik sharoitida ma'naviy qadriyatlarning o'zgarishi falsafiy jihatdan asoslab berilgan.

ФЕНОМЕН МИГРАЦИИ В СОЦИАЛЬНОЙ КАРТИНЕ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА: АНТРОПОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД И ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ

Бахадиржон Махамаджонович Абдуллаев

*Преподаватель (PhD) кафедры социально-гуманитарных наук педагогики и психологии, АДЧТИ
Андижан, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: миграция, социальная антропология, экзистенция, идентификация, транслокальность, философские категории, Новый Узбекистан, культурная адаптация.	Аннотация: В статье исследуется социально-антропологическое содержание феномена миграции и его связь с философскими категориями. Автор анализирует миграцию не просто как пространственное перемещение, а как качественную трансформацию человеческого бытия (экзистенции). В работе философски обосновываются вопросы личностной идентичности мигранта, диалектика категорий «свой» и «чужой», а также трансформация духовных ценностей в условиях транслокальности.
--	--

Migratsiya fenomenini zamonaviy ijtimoiy falsafa prizmasida tadqiq etish uni nafaqat aholining makoniy ko'chishi, balki inson borlig'ining (ekzistensiyasining) sifat jihatidan yangilanishi sifatida baholashni taqozo etadi. Bu jarayonda individning geografik lokatsiyasi o'zgarishi bilan bir qatorda, uning ijtimoiy-antropologik qiyofasi va fundamental falsafiy kategoriyalar bilan bog'liqligi tubdan transformatsiyaga uchraydi. Migratsiya jarayonida insonning ichki dunyosi va qadriyatlar tizimi qayta shakllanishi «ijtimoiy identifikatsiya inqirozi» va «yangi adaptatsiya» dialektikasida namoyon bo'ladi. So'nggi yillardagi mahalliy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, migrant nafaqat jismoniy makonni, balki o'z ijtimoiy borlig'ining koordinatalarini ham o'zgartiradi. Bu holatni ijtimoiy-antropologik jihatdan tahlil qilgan olimlar ta'kidlashicha, «migratsiya — shaxsning o'zlikni anglash darajasini statik holatdan dinamik holatga o'tkazuvchi ontologik mexanizmdir» .

Andijon viloyati misolida bu jarayon individning an'anaviy jamoaviy nazoratdan chiqib, global ijtimoiy tarmoqlarga integratsiyalashuvi sifatida namoyon bo'ladi. Bu yerda «dualistik identifikatsiya» fenomeni yuzaga keladi: migrant bir vaqtning o'zida ham global mehnat bozorining raqobatdosh ishtirokchisiga aylanadi, ham o'z milliy ildizlariga nisbatan ekzistensial

sogʻinch va bogʻliqlikni his qiladi. Bu jarayon Yangi Oʻzbekistonning ijtimoiy falsafasida «inson kapitalining sifat transformatsiyasi» sifatida tavsiflanmoqda .

Migratsiyaning antropologik mazmuni insonning «yopiq ijtimoiy tizim»dan «ochiq tizim»ga oʻtishini ifodalaydi. Bu esa shaxsning nafaqat iqtisodiy imkoniyatlarini, balki uning borliqdagi oʻrni va ijtimoiy masʼuliyatini qayta anglashiga olib keladi .

Migratsiya fenomenining ijtimoiy-antropologik ildizlari Sharq falsafiy tafakkurida «safari» (makoniy harakat) va «muhojirlik» tushunchalari orqali inson kamolotining uzviy elementi sifatida talqin qilingan. Bu anʼanaviy yondashuvda insonning makoniy siljishi shunchaki geografik oʻzgarish yoki iqtisodiy ehtiyoj emas, balki ruhiy-maʼnaviy transformatsiya, tajriba orttirish va «oʻzlikni qayta kashf etish» jarayoni hisoblanadi. Sharq mutafakkirlari uchun musofirlik — bu shaxsning ijtimoiy adaptatsiya qobiliyatini sinovdan oʻtkazuvchi va uning fikrlash doirasini kengaytiruvchi «maʼrifiy laboratoriya» vazifasini oʻtagan. Ushbu jarayonning falsafiy-metodologik asoslarini tadqiq etgan G.B. Sharipov taʼkidlaganidek, klassik Sharq falsafasida harakat — inson borligʻining ontologik faolligi sifatida eʼtirof etilgan .

Abu Nasr Farobiy (873–950) oʻzining ijtimoiy-siyosiy qarashlarida insonning makoniy mobilligini «maʼrifiy va ijtimoiy zarurat» sifatida baholaydi. Uning «Fozil odamlar shahri» asaridagi jamiyat modelida insonlarning bir makondan ikkinchi makonga koʻchishi, bilim va hunar almashishi fozil jamiyatning barqarorligini taʼminlovchi omil sifatida koʻriladi. Farobiy tizimida migrant — bu «mahalliy mahdudlik»dan chiqib, umuminsoniy qadriyatlar va fan yutuqlarini oʻzlashtirishga intiluvchi faol subʼektdir. Falsafiy-antropologik jihatdan Farobiy qarashlari shuni anglatadiki, insonning ijtimoiy kamoloti faqat bir muhitda (statik) emas, balki turli madaniyatlar va ijtimoiy tizimlar bilan muloqotda (dinamik) shakllanadi. Mazkur konsepsiyaning zamonaviy transformatsiyasini oʻrgangan M. Lafasov Farobiyning migratsiya haqidagi gʻoyalarini inson kapitalining intellektual kengayishi bilan bogʻlaydi .

Alisher Navoiy (1441–1501) ijodida migratsiyaning antropologik mohiyati «gʻariblik» va «vatan» kategoriyalarining murakkab dialektikasida namoyon boʻladi. Navoiy konsepsiyasida migrant — bu jismoniy makonga emas, balki «mazmuniy ildiz»ga bogʻlangan shaxsdir. Mutafakkirning «gʻarib» obrazi orqali insonning oʻzlikni saqlash strategiyasi makonga bogʻliq boʻlmagan «maʼnaviy barqarorlik» sifatida taʼriflanadi. Navoiy «Muhokamat ul-lugʻatayn» va «Sabaʼi sayyor» asarlarida insonning oʻz yurtidan yiroqda boʻlishi uning irodasini toblashini va «nafs tarbiyasi»da muhim rol oʻynashini taʼkidlaydi. Uning fikricha, haqiqiy musofir — bu begona muhitda oʻz insoniy qiyofasini va milliy qadriyatlarini yoʻqotmagan, balki ularni boyitgan shaxsdir. Bu borada S.M. Xaydarova qayd etganidek, Navoiy falsafasida muhojirlik shaxsning ekzistensial toblanish bosqichidir .

Bugungi globallashuv sharoitida Andijon viloyatidan chiqqan migrantlar uchun Navoiyning ushbu «ma'naviy ekzistensializm» qarashlari begona madaniy muhitda (madaniy unifikatsiya va assimilyatsiya xavfi ostida) o'z milliy-diniy identifikligini himoya qilishning falsafiy dasturi bo'lib xizmat qiladi. Sharq uyg'onish davri mutafakkirlarining migratsiyaga oid qarashlari inson kapitalining «ma'naviy-axloqiy sifati»ni belgilashda fundamental ahamiyatga ega. Bu yondashuv migratsiyani shunchaki «ishchi kuchi oqimi» sifatida emas, balki millatning dunyoqarashini kengaytiruvchi va uni global tizimda raqobatbardosh qiluvchi «intelektual transfer» sifatida o'rganish imkonini beradi.

Klassik Sharq falsafasi migratsiya fenomeniga insonning borliqdagi o'rnini qayta anglash, o'zlikni sinovdan o'tkazish va jamiyatlararo ko'prik qurish vositasi sifatida qaraydi. Bu esa O'zbekistonda migratsiya siyosatini faqat iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan emas, balki insonning antropologik kamoloti va milliy manfaatlari uyg'unligida shakllantirish zarurligini asoslaydi.

Migratsiya jarayonlarini ijtimoiy-antropologik tahlil qilishda o'zbek davlatchiligi va ilm-fani tarixida o'chmas iz qoldirgan ikki buyuk zot – Zahiriddin Muhammad Bobur va Alixon To'ra Sog'uniyning qarashlari fundamental ahamiyatga ega. Ularning qarashlari shunisi bilan ahamiyatliki, mualliflar muhojirlikning nafaqat jismoniy mashaqqatlarini, balki uning shaxs ma'naviyatiga ta'sir etuvchi «ijtimoiy degradatsiya» xavfini o'z tajribalaridan kelib chiqib tahlil qilganlar. Ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan, Bobur va Sog'uniy merosi migrantning begona muhitda «o'zligini yo'qotishi» (assimilyatsiya) va «o'zligini saqlashi» (identifikatsiya) o'rtasidagi dialektik kurashni ochib beradi.

Bobur ijodida migratsiya (muhojirlik) shunchaki makon o'zgartirish emas, balki «g'ariblik» kategoriyasi orqali inson ruhiyatining eng nozik qirralarini ochib beruvchi ontologik hodisadir. Bobur «Boburnoma»da o'z taqdirini doimiy harakat va vatandan ayriliq sifatida tasvirlar ekan, migratsiyaning ichki ruhiy iztirobi va o'zlikni yo'qotish xavfini ekzistensial darajada ifodalaydi. U Hindistonda buyuk saltanat qurgan bo'lsa-da, o'zini antropologik jihatdan u yerga mansub deb hisoblamagan. Uning uchun migratsiya — bu jismoniy mavjudlik va ma'naviy ildiz o'rtasidagi doimiy kurash maydonidir. Boburning «begona muhitda erimaslik» uchun milliy madaniyat va tilni saqlashni ontologik zarurat deb bilishi, bugungi kunda xorijda yurgan vatandoshlarimiz uchun «ma'naviy immunitet» namunasidir. Bu borada tadqiqot olib borgan S. Xasanov ta'kidlaganidek, Boburning muhojirlik falsafasi — bu shaxsning milliy identifikatsiyasini geopolitik chegaralardan ustun qo'yish san'atidir.

Alixon To'ra Sog'uniyning «Turkiston qayg'usi» asarida migratsiya masalasi siyosiy va diniy erkinliklarning cheklanishi natijasida yuzaga kelgan «ijtimoiy majburiyat» sifatida baholanadi. Sog'uniy muhojiratni millat uchun «ma'naviy fojia» deb hisoblaydi, chunki

muhojiratda millat tarqoqlashadi, tili va dini zaiflashishi mumkin. Uning qarashicha, migrant begona yurtida «ko‘r-ko‘rona taqlid» (unifikatsiyaning salbiy shakli) tuzog‘iga tushmasligi kerak. Sog‘uniy G‘arb va Sharq madaniyati kesishmasidagi migrant uchun «ilmni o‘zlashtirish, lekin axloqni saqlash» formulasini ilgari surgan. Bu esa tadqiqotimizdagi ijtimoiy-falsafiy jarayonlarda «milliy filtr»ning naqadar zarurligini asoslaydi. Mazkur konsepsiyaning ijtimoiy ahamiyatini tahlil qilgan M.Muhammadiyev Sog‘uniyning qarashlarini migratsiya sharoitida «ma‘naviy xavfsizlik»ni ta‘minlashning muhim manbasi sifatida baholaydi.

Bobur va Sog‘uniy qarashlarining qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, migratsiya jarayonida insonning ijtimoiy-antropologik qiyofasi ikkita kuchli bosim ostida qoladi: makon sog‘inchi (nostalgiya) va yangi muhitga moslashish (adaptatsiya). Boburning vatan sog‘inchi falsafasi bilan Sog‘uniyning milliy qayg‘u konsepsiyasi bir nuqtada kesishadi: migratsiya insonni o‘z ijtimoiy ildizlaridan ayiradi va uni «dunyo fuqarosi»ga aylantirishga urinadi. Biroq, bu zotlar ta‘kidlagandek, insonning ma‘naviy barqarorligi uning o‘z kelib chiqishiga bo‘lgan ontologik sadoqatiga bog‘liq. Demak, Andijon viloyatidan chiqqan zamonaviy migrant ham faqat iqtisodiy sub‘ekt emas, balki Bobur va Sog‘uniy ta‘riflagan ma‘naviy-ruhiy izlanishdagi sub‘ektdir.

Zamonaviy O‘zbekiston falsafiy maktabi migratsiya fenomenini shunchaki aholining makoniy ko‘chishi emas, balki milliy o‘zlikni anglash, qadriyatlar tizimining transformatsiyasi va inson kapitalining dinamik rivojlanishi kontekstida tadqiq etmoqda. Bunda asosiy e‘tibor migrant shaxsining ichki dunyosida sodir bo‘ladigan ekzistensial o‘zgarishlarga qaratilgan.

Professor S. Otamurodov migratsiyaning antropologik jihatini milliy o‘zlikni anglash strategiyalari bilan bog‘lab o‘rganadi. Uning konsepsiyasiga ko‘ra, globallashtirish sharoitida migratsiya — bu milliy mentalitetning «chidamlilik imtihoni»dir. Otamurodovning fikricha, migrant begona madaniy muhitda unifikatsiya (umumlashish) bosimiga uchrasa-da, bu jarayon aks ta‘sir sifatida «milliy o‘zlikni himoya qilish instinkti»ni kuchaytiradi. Andijonlik migrantlar misolida buni xorijdagi vatandoshlarning mahalladoshlik va jamoaviy yordam tarmoqlarini (masalan, Rossiya yoki Koreyadagi «Andijonliklar jamiyati») tuzishida ko‘rish mumkin. Bu jarayonni S. Otamurodov milliy o‘zlikning «retro-transformatsiyasi», ya‘ni kelajakka intilish jarayonida o‘z milliy ildizlariga qayta suyanish hodisasi sifatida talqin qiladi. Bu yondashuv migratsiyani millatni parokanda qiluvchi omil emas, balki uning madaniy chegaralarini global miqyosda kengaytiruvchi vosita sifatida baholashga imkon beradi.

Professor Q.Nazarov migratsiya fenomeniga aksiologik (qadriyatshunoslik) paradigma asosida yondashadi. Uning qarashicha, migrant — bu «qadriyatlar transferi»ning faol sub‘ektidir. Migratsiya jarayonida insonning qadriyatlar ierarxiyasi qayta quriladi. Andijon viloyatidan chiqqan mehnat migranti xorijda pragmatik qadriyatlarni (ish vaqtini aniq rejalashtirish,

texnologik intizom, shaxsiy mas'uliyat) o'zlashtiradi va vatanga qaytgach, ularni mahalliy an'anaviy qadriyatlar (oilaga g'amxo'rlik, ijtimoiy birdamlik) bilan sintez qiladi.

Xulosa qilib aytganda, S. Otamurodovning «o'zlikni anglash», Q.Nazarovning «qadriyatlar transferi» va J. Ramatovning «dinamik shaxs» konsepsiyalari Andijon viloyati migratsiya jarayonlarini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tizimli tahlil qilish uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Per Burdening migratsiya — bu kapitalning bir shakldan ikkinchi shaklga konvertatsiya qilinish jarayonidir. Andijonlik migrant o'z yurtida to'plagan «ijtimoiy kapitalini» (qarindoshlik aloqalari, mahalladoshlik birdamligi) xorijiy mehnat bozorida «iqtisodiy kapitalga» aylantirishga intiladi. Biroq, bu jarayonda eng muhim transformatsiya «madaniy kapital» sohasida yuz beradi. Migrant begona muhitda yangi texnologik ko'nikmalar, ish etikasi va ijtimoiy normalarni o'zlashtirishi natijasida uning antropologik tipi «an'anaviy shaxs»dan «texnologik shaxs»ga aylanadi. Bu jarayonni tadqiq etgan mahalliy olimlar ta'kidlashicha, migrantlar tomonidan olib kelinayotgan «innovatsion madaniy kapital» Andijon viloyati kabi demografik faol hududlarning ijtimoiy qiyofasini modernizatsiya qilishda asosiy drayver bo'lib xizmat qilmoqda.

Zigmunt Baumanning «suyuq modernlik» konsepsiyasi migratsiyani globallashtirishning eng oliy mahsuli sifatida tavsiflaydi. Bauman fikricha, zamonaviy migrant — bu makoniy bog'liqliklari uzilgan, ammo global aloqalar tarmog'iga integratsiyalashgan «transmilliy sub'ekt»dir. Uning «Vagabonds» (kezuvchilar) va «Tourists» (sayyohlar) haqidagi majoziy tasnifi migratsiyaning ijtimoiy tabaqalanishini ochib beradi. Andijonlik migrant uchun Rossiya yoki Janubiy Koreya endilikda «begona va qo'rqinchli dunyo» maqomidan chiqib, uning yashash va faoliyat yuritish makonining «virtual kengaytmasiga» aylandi. Bu jarayonda insonning makon bilan bog'liq ontologik tushunchalari o'zgaradi: Vatan — bu statik nuqta emas, balki insonning qadriyatlari va ijtimoiy mas'uliyati markazidir. Bauman ta'kidlaganidek, global harakatchanlik insonni «makoniy mahkumlik»dan ozod qiladi, biroq uning zimmasiga o'zlikni asrab qolish borasida yangi ekzistensial mas'uliyatni yuklaydi.

Migratsiyaning antropologik mazmunini Stiven Kastls «ijtimoiy transformatsiya» kategoriyasi orqali yoritadi. U migratsiyani shunchaki iqtisodiy oqibat emas, balki jamiyatning ichki tuzilmasini qayta quruvchi kuch sifatida ko'radi. Migrant begona muhitga moslashish jarayonida (adaptatsiya) o'z milliy kodini «modernizatsiya» qiladi. Bu jarayonni ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan «gibrid identifikatsiya» deb atash mumkin. Ya'ni, Andijon viloyatidan chiqqan migrant nafaqat o'z yurtining vakili, balki global mehnat madaniyatining tashuvchisi — «transmilliy fuqaro» sifatida shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda, G'arb falsafiy-antropologik paradigmasi migratsiyani shaxsning «ijtimoiy o'sish» va «borliqni kengaytirish» vositasi sifatida talqin qiladi. Bunda Burdening «kapital konvertatsiyasi» va Baumanning «mobil ekzistensiyasi» Andijon viloyati misolidagi migratsiya jarayonlarining ichki mantig'ini anglashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu yondashuv migratsiyani ijtimoiy muammo emas, balki inson kapitalini yuksaltiruvchi global imkoniyat sifatida qayta ta'riflashga imkon beradi.

Professor L.L. Рыбаковский migratsiya nazariyasiga tizimli yondashuvni olib kirdi. Uning «migratsiyaning uch bosqichli konsepsiyasi» migrant shaxsiyatining transformatsiyalashuvini bosqichma-bosqich yoritishga xizmat qiladi.

1. Tayyorgarlik bosqichi: Individdning ongida «ko'chish strategiyasi» va psixologik moslashuv shakllanishi.
2. Ko'chish (harakat) bosqichi: Makoniy siljish va ontologik chegaralarni kesib o'tish.
3. Moslashish (adaptatsiya) bosqichi: Yangi ijtimoiy makonda o'z «meni»ni qayta tiklash. Ribakovskiyning fikricha, migratsiyaning muvaffaqiyati insonning yangi muhitga nafaqat jismoniy, balki ma'naviy-ruhiy jihatdan qanchalik «integratsiya» bo'la olishi bilan belgilanadi. Andijon viloyati migrantlari uchun bu bosqichlar mahalla va oilaviy institutlarning qo'llab-quvvatlashi natijasida o'ziga xos jamoaviy xarakter kasb etadi.

Andijon viloyati o'zining yuqori demografik zichligi va mehnat resurslarining faolligi bilan O'zbekistonning migratsion manzarasida alohida antropologik tipni tashkil etadi. Bu yerda migratsiya jarayoni nafaqat iqtisodiy zarurat, balki mintaqa aholisining ijtimoiy moslashuvchanligini va hayotiy strategiyalarini belgilovchi fundamental omilga aylangan. Viloyatdagi migratsiya jarayonlarining o'ziga xos xususiyati shundaki, unda an'anaviy «mahalla instituti» va «jamoaviy birdamlik» omillari global mobillik bilan sintezlashadi.

Andijon viloyati misolida migratsiya — bu mintaqaning antropologik salohiyatini global darajaga olib chiquvchi mexanizmdir. Bu jarayonni falsafiy anglash bizga migratsiyani shunchaki «ishchi kuchining chiqib ketishi» emas, balki millatning intellektual va ijtimoiy quvvatini qayta taqsimlanishi sifatida ko'rish imkonini beradi. Bu esa viloyatda migratsiya siyosatini «inson qadri» va «milliy manfaatlar» kesishmasida yangicha boshqarishni taqozo etadi.

Zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tafakkurda migratsiya jarayoni inson kapitalining sifat ko'rsatkichlarini o'zgartiruvchi global mexanizm sifatida baholanmoqda. Andijon viloyati misolida bu jarayon shunchaki ishchi kuchining chiqib ketishi emas, balki mintaqa aholisining intellektual, psixologik va ijtimoiy-madaniy salohiyatini yangi bosqichga ko'taruvchi «sifat

transformatsiyasi»dir. Bu esa kelajakda viloyatning innovatsion rivojlanishi uchun mustahkam antropologik zamin yaratadi.

Ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan, migratsiya sharoitida shakllangan «yangi inson kapitali» quyidagi uchta fundamental yoʻnalishda namoyon boʻladi:

1. Intellektual-texnologik yoʻnalish: Xorijda zamonaviy texnologiyalar va boshqaruv tizimlari bilan ishlagan migrantlarning vatanga qaytishi («bilimlar transferi»).
2. Psixologik-irodaviy yoʻnalish: Muhojirlikning ekzistensial qiyinchiliklarini yengib oʻtgan shaxsda yuqori darajadagi moslashuvchanlik (resilience) va tadbirkorlik ruhining shakllanishi.
3. Aksiologik yoʻnalish: Milliy qadriyatlarni global mehnat etikasi va huquqiy madaniyat bilan sintez qilish qobiliyati.

Andijon viloyatining istiqboldagi ijtimoiy-falsafiy manzarasida migratsiyaning «milliy remigratsiya» bosqichi hal qiluvchi rol oʻynaydi. Bu jarayonda xorijda toʻplangan moliyaviy va intellektual kapitalning mahalliy ijtimoiy muhitga qayta investitsiya qilinishi jamiyatning antropologik tuzilmasini «statik va yopiq» holatdan «dinamik va ochiq» holatga oʻtkazadi. Bu borada J.S.Ramatov taʼkidlaganidek, inson kapitalining yuksalishi faqat taʼlim tizimi bilan emas, balki shaxsning global ijtimoiy munosabatlar tizimidagi faol ishtiroki bilan belgilanadi.

Falsafiy prognozlarga koʻra, Andijon viloyatida migratsiya jarayonlari kelajakda «sirkulyar migratsiya» (davriy harakat) modeliga toʻliq oʻtadi. Bunda inson bir vaqtning oʻzida ham mahalliy mahalla institutining faol aʼzosi, ham global mehnat bozorining raqobatbardosh subʼekti boʻlib qoladi. Andijon viloyatining kelajagi migratsiyani cheklashda emas, balki uning antropologik samaradorligini oshirish va migrantlarni «milliy rivojlanish agentlari»ga aylantirishdadir.

Oʻtkazilgan ijtimoiy-falsafiy va antropologik tahlillar shuni koʻrsatadiki, migratsiya fenomeni Andijon viloyati misolida nafaqat demografik siljish, balki jamiyatning ichki maʼnaviy-ijtimoiy salohiyatini yangilovchi kuchli omil sifatida namoyon boʻlmoqda. Biz tadqiq etgan mutafakkirlar va zamonaviy olimlarning qarashlarini umumlashtirib, quyidagi yakuniy xulosalarga kelish mumkin:

1. Migratsiya va inson kamoloti: Sharq mutafakkirlaridan tortib zamonaviy oʻzbek falsafasigacha migratsiya — insonning oʻzlikni anglashi va ijtimoiy tajriba orttirishining dinamik shakli sifatida talqin etiladi.
2. Antropologik transformatsiya: Andijonlik migrantlarning xorijdagi faoliyati ularda yangi tipdagi — global muhitga moslashuvchan, lekin milliy kodini saqlagan «transmilliy shaxs» qiyofasini shakllantiradi.

3. Strategik resurs: Migratsiya jarayonida shakllanayotgan intellektual va madaniy kapital kelgusida mintaqaning innovatsion yuksalishi uchun asosiy drayver bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, migratsiya fenomenini ijtimoiy-antropologik jihatdan tadqiq etish, uning mazmuni faqatgina demografik yoki statistik ko'rsatkichlar bilan cheklanib qolmasligini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, migratsiya jarayonida inson ekzistensiyasining tubdan transformatsiyalashuvi sodir bo'ladi. Bunda «o'zlik» va «begonalik» kategoriyalarining o'zaro dialektik munosabati natijasida migrant shaxsiyatida translokallik xususiyatlari shakllanadi.

Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoev ta'kidlaganidek, «Biz uchun eng katta boylik — bu bilimli, ma'rifatli va yuqori malakali inson kapitalidir. Xorijda mehnat qilayotgan vatandoshlarimizni qo'llab-quvvatlash va ularning salohiyatini yurt ravnaqiga yo'naltirish — islohotlarimizning ajralmas qismi hisoblanadi» .

Globallashtirish va Yangi O'zbekistonning ochiqlik siyosati sharoitida migratsiyani falsafiy kategoriyalar prizmasida tahlil qilish, migrantlarni ijtimoiy diffuziya agentlari sifatida baholashga imkon beradi. Bu esa o'z navbatida, migratsiyaning ijobiy ijtimoiy-madaniy kapitalga aylanishini ta'minlovchi metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Maqolaning yakuniy xulosasi shundan iboratki, migratsiya jarayonlarini falsafiy-antropologik tushunish va uning kategoriyalarini tizimlashtirish, milliy manfaatlarni xalqaro migratsiya oqimlari bilan uyg'unlashtirishda strategik ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Бауман З. Глобализация. Последствия для человека и общества / Пер. с англ. — М.: Издательство «Вес Мир», 2004.
2. Бурде П. Формы капитала (пер. с англ. М.С. Добряковой) // Экономическая социология. — М.: ВШЭ, 2002. — Т. 3, № 4. — С. 60-74.
3. Жо'раев Ш.Т. Глобallashtirish sharoitida inson birlig'ining transformatsiyalashuvi: ijtimoiy-falsafiy tahlil. Falsafa fanlari doktori (DSc) diss. avtoreferati. — Samarqand, 2022.
4. Кастлс С., Миллер М.Ж. Век миграции: международное движение населения в современном мире. — М.: ИМЭМО РАН, 2013. — С. 48-52.
5. Қодирова.З.Р. Глобал миграция жараёнларида шахс идентификациясининг антропологик хусусиятлари. Социология фанлари бо'йича фалсафа доктори (PhD) diss. автореферати. — Бухоро, 2024. — Б.

6. Лафасов М. Шарқ мутафаккирлари қарашларида ижтимоий ҳаракатчанлик ва инсон камолоти диалектикаси: Фалсафа фанлари доктори (DSc) дисс. — Тошкент: О‘зМУ, 2024. — Б. 156.
7. Мирзиёев Ш.М. Янги О‘збекистон стратегияси. — Тошкент: «О‘збекистон», 2021.
8. Муҳаммадиев М. Алихон То‘ра Соғ‘унийнинг ижтимоий-сиёсий ва маънавий-ахлоқий қарашлари: Фалсафа фанлари бо‘йича фалсафа доктори (PhD) дисс. — Тошкент: О‘зМУ, 2018.
9. Назаров Қ.Н. Аксиология: қадриятлар фалсафаси. — Тошкент: «Фалсафа ва ҳуқуқ» нашриёти, 2011.
10. Ниёзов Б.А. Янги О‘збекистон тараққиёт стратегиясида инсон капитали ва ижтимоий мобиллик мутаносиблиги. Фалсафа фанлари бо‘йича фалсафа доктори (PhD) дисс. — Тошкент, 2023.
11. Отамуратов С.С. Глобаллашув шароитида миллий о‘зликни англаш стратегияси: Фалсафа фанлари доктори (DSc) диссертацияси. — Тошкент: О‘зР ФА Фалсафа ва ҳуқуқ институти, 2017.
12. Раматов Ж.С., Султанов С.Н. Ижтимоий фалсафа. — Тошкент: «Инновация-Зиё», 2021.
13. Рыбаковский Л.Л. Миграция населения: теория и практика. — М.: ИСПИ РАН, 2001. — С. 45-48.
14. Хайдарова.С.М. Янги О‘збекистонда ижтимоий антропологиянинг фалсафий-методологик асослари: Фалсафа фанлари бо‘йича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореферати. — Самарқанд, 2025.
15. Хасанов С. Бобурнинг маънавий олами ва муҳожирлик психологияси: Тарих фанлари доктори (DSc) дисс. — Тошкент, 2022.
16. Шарипов Г.Б. Фозил одамлар шаҳри концепциясининг замонавий ижтимоий-фалсафий трансформацияси: Фалсафа фанлари бо‘йича фалсафа доктори (PhD) дисс. — Бухоро: БДУ, 2023.